



## **XORAZM DAVLATINING TASHKIL TOPISHI, UNDAGI IQTISODIY VA IJTIMOY HAYOTI**

***Raximova Shaxnoza Xusanboyevna***

*Urganch davlat Universiteti tarix fakulteti tarixshunoslik yo'nalishi  
magistranti*

**Annotation:** *Ushbu maqolada Xorazm davlatining tashkil topishi, afrig'iylar sulolasi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Xorazmdagi iqtisodiy va ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Key words:** *O'rta Osiyo, Yasht, Sak, afrig'iylar, antik hunarmandchilik markazi, Burgut qal'a.*

Xorazm O'rta Osiyo hududidagi eng qadimiy davlatlardan biri bo'lib, aholisi o'troq va ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lgan. Uning hududi Amudaryoning quyi qismidan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan. U haqdagi ilk ma'lumotlar "Avesto", birinchi Doroning Bihistun tosh bitiklari, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. "Avesto"ning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqdarga boy o'lka" sifatida madh etiladi.

Xorazm tarixini chuqur o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)
2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)
3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)
4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar)

Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi.

Xitoyning Tan sulolasi davrida (milodiy VII-X asrlar) Xorazmda asosan turkiy qabilalar yashagan. Tanshu solnomasida shunday deyiladi: "Barcha turk elatlari ichida ho'kiz qo'shilgan arava faqat shu erda (Xorazm) uchraydi. Bu aravalarda savdogarlar turli viloyat va elatlarni aylanib, savdo qilib yuradilar." Bu o'rinda gap Xorazmning savdo-sotiq bilan kun kechiruvchi o'troq aholisi ustida ketyapti. Shu bilan birga Xorazm vohasiga yaqin cho'l va dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador turkiy qabilalar yashagan.

Eron Axomaniylari shohi Kayxusrav (Kir, Kurush) (miloddan avvalgi 558-530 y.) Xorazm va unga tutash hududlarni bosib olgan. Xorazm miloddan avvalgi 6-5 asrlarda Axomaniylar davlatining 16-satrapligi (viloyati) tarkibiga kirgan. Lekin ko'chmanchi Sak (Massagetlar) qabilasi ustiga hujum qilganida Kayxusrav malika To'marisdan yengilib, halok bo'lgan. Xorazm o'z mustaqilligini tiklagan. Miloddan avvalgi III asrda esa u Qang davlati tarkibida bo'lgan.

Xorazm tarixining to'rt afrig'iylar sulolasi asoschisi Afrig'gacha (305 y.) bo'lgan davri haqida ma'lumotlar kam. Faqat qadimda Kayxusrav (mil.av. 1200-1140 y.), Saksafar (mil.av. 519- 517 y.), Farasman (mil.av. 329-320 y.), Xusrav (mil. av. 320 y.) singari xorazmshohlar bo'lganligi,



Farasman miloddan avvalgi 328 yilning bahorida O'rta Osiyoga bostirib kirgan makedoniyali Aleksandr (Iskandar) huzuriga muzokara uchun sovg'a-salomlar bilan kelganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Abu Rayhon Beruniy afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kot (Kos) shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana shu davrlarda qurilgan.

Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

712 yili Xorazmni arablar bosib olgan. Xalifalikning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim xorazmliklarning tarixiy adabiyoti va madaniy merosini saqlab kelgan olimlarni qirg'in qilgan va quvib yuborgan. Shu sababli arablar istilosigacha bo'lgan davrdagi yozma tarixiy manbalar deyarli uchramaydi.

**Afrig'iylar davlati tashkil topishi.** Xorazm davlatining tashkil topishi. Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

Milodiy 305-yilda Xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi Kat shahriga ko'chiradi. Kat qayta tiklanib, shoh o'ziga yangi saroy qurdiradi. 305-yildan boshlab, Xorazmning afrig'iy shohlari kumush tangalar zarb etganlar. Tangalarining oldi tarafiga shoh surati, orqasiga esa suvoriy surati tushirilgan. Kumush tangalarning zarb etilishi mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarini mustahkamlagan. Hukmdorlar "Xorazmshoh" unvoniga sazovor bo'lishgan. "Xorazmshohlar" unvonini dastlab "siyovushlar sulolasi" tomonidan qabul qilingan. III asrda Xorazm hududida bir nechta mayda hokimliklar mavjud bo'lgan. Tuproqqal'adan qo'lida burgut qo'ndirilgan tojdor hukmdor yoki Anqaqal'a yaqinidan esa qo'lida lochin tutgan tojdor kishi tasviri tushirilgan tangananing topilishi, shubhasiz, hukmronlik ramzidan dalolat beradi. Xorazmda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san'at, xususan, haykaltaroshlik yuqori darajada rivoj topgan. Xorazm xioniylar, kidariylar, eftallar hamda Turk xoqonligi davrida ham o'zining siyosiy mustaqilligini saqlab qoladi. Xorazm Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borgan.

Afrig'dan keyingi Xorazmshohlardan 22 tasini nomi ma'lum: Ofring, Bug'ra (Bag'za), Shoxassax, Askajamux, Saxr, Sabriy, Askajavar, Saxxasak, Shovushafar, Turkash ota, Abdulloh, Mansur, Iroq, Muhammad, Ahmad, Abu Abdulloh Muhammad. Beruniyning ta'kidlashicha, xorazmliklar tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning (Xorazm) shohlari deb ataluvchi naslidan bo'lgan bir podshoh davrining boshlanishidan tarix oldilar. Nihoyat, Kayxusrav naslidan Afrig' podshohligi boshlandi. Xorazmliklar Afrig' va uning avlodi podshohlaridan tarix oldilar.

Afrig'iylar sulolasi vakillari (Milodiy 305-995 y.)

1. Afrig'
2. Bag'ra
3. Saxxasan
4. Azhajamuq



5. Azkajavar I
6. Saxr I
7. Tovush
8. Xamgari
9. Bo'zgar
10. Arsamux
11. Saxr II
12. Sabri
13. Azkajavar II
14. Azhajamuq II
15. Shovshafar
16. Turksabosa
17. Abdulloh
18. Mansur ibn Abdulloh
19. Iroq ibn Mansur
20. Muhammad
21. Ahmad ibn Iroq
22. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad

**Afrig'iylar davri madaniyati.** Afrig'iylar madaniyati - Xorazmdagi 4—8-asrlarga oid madaniyat, afrig'iylar sulolasi nomi bilan bog'liq. Afrig'iylar madaniyatiga oid yodgorliklar 1937—40 yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Afrig'iylar madaniyati shakllanishida qo'shni ko'chmanchi qabilalar muhim rol o'ynagan. Bu davrda antik hunarmandchilik markazi — qadimiy shaharlar inqirozga uchrab, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot qishloqda, mulkdorlarning qo'rg'oni va qasrlari atrofida jonlangan. Burgut qal'a vohasida olib borilgan qazishmalar vaqtida sertarmoq sug'orish kanali va ariqlar, dalalarning rejali joylashuvi aniqlangan. Katta-kichik turar joylar to'p-to'p joylashgan, katta yer egalarining qasrlari kanallar boshida bo'lib, ular suv taqsimotini nazorat qilib turganlar. Xorazmda bu davr istehkomlari asosan paxsadan to'rtburchak tarxda qurilgan, devori burjlar bilan mustahkamlangan, davra yoki to'rtburchak tarhli (so'nggi mudofaa minorasi) bo'lgan. Yirik qal'alar (Yakka Porson, Qum qal'a, Uy qal'a, Teshiqqala) mudofaa istehkomlariga ega bo'lgan. Eng yirik istehkom — Burgut qal'a (maydoni 6 ga dan oshiq) atrofida shahar vujudga kela boshlagan. Turar joylar daxliz, asosiy va yordamchi xo'jalik xonalaridan iborat bo'lgan. Imoratlarning tarhi, qiyofasi aholining ijtimoiy mavqeiga bog'liq bo'lganligi aniqlandi. Harobalardan mis tangalar, jez, qo'lda va charxda yasalgan sopol idishlar (xum, ko'zacha) siniqlari, bezak buyumlari, temirdan yasalgan dehqonchilik va hunarmandchilik qurollari (ketmon, o'roq, pichoq va boshqalar), shoyi, ip, jun gazlama parchalari, uch parrakli temir paykonlar, xanjarlar, yorg'uchoqlar, tegirmon toshlari, yozma yodgorliklar topilgan. Marhumlarni ostodon (sopol tobut)larda ko'mish rasm bo'lgan. Tarixiy manbalarda 8-asrga oid Kat, Hazorasp, Urganch sh. eslatib o'tilgan

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Asqarov A. O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha) T, 1994.
2. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari, Toshkent, 1991.